

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Axmedov Qaxramon,

O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: qahramonahmedov67@gmail.com

ИЖТИМОЙ ХОДИМЛАРНИ ТАЙЙОРЛАШДА PROFESSIONAL TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHLATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354947>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasining shakllanish jarayonlari va uning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Unda ijtimoiy ish ta'limini professional darajada takomillashtirishning asosiy jihatlari, tarixiy tajriba hamda xalqaro amaliyotning ahamiyati yoritilgan. Maqolada ijtimoiy ishning dastlabki bosqichlari, mustaqillikdan keyingi davrda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilish choralari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish yo'nalishining joriy etilishi jarayoni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, malakali mutaxassislar tayyorlash va mavjud kadrlarni qayta tayyorlash masalalari tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda professional ta'lim sifatini oshirish O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini samarali qondirishning muhim omili ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, professional ta'lim, ta'limni takomillashtirish, tarixiy bosqichlar, O‘zbekiston, ijtimoiy himoya tizimi, mutaxassis tayyorlash, xalqaro hamkorlik, oliy ta'lim.

Ахмедов Кахрамон,

доктор философии (PhD) по социологическим наукам,

старший преподаватель Национального
университета Узбекистана

e-mail: qahramonahmedov67@gmail.com

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются процессы становления и этапы развития социальной работы в Узбекистане. Освещаются основные аспекты совершенствования профессионального образования в области социальной работы, значение исторического опыта и международной практики. Рассматриваются начальные этапы развития социальной работы, меры по реформированию системы социальной защиты в постнезависимый период, а также процесс внедрения направления «социальная работа» в высших учебных заведениях. Кроме того, анализируются вопросы разработки учебных программ в сотрудничестве с

международными организациями, подготовки квалифицированных специалистов и переподготовки существующих кадров. В заключение обосновывается, что повышение качества профессионального образования при подготовке социальных работников является важным фактором развития системы социальной защиты и эффективного удовлетворения социальных потребностей населения Узбекистана.

Ключевые слова: социальная работа, социальный работник, профессиональное образование, совершенствование образования, исторические этапы, Узбекистан, система социальной защиты, подготовка специалистов, международное сотрудничество, высшее образование.

Akhmedov Kahraman,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological
Sciences, Senior Lecturer at the
National University of Uzbekistan
e-mail: qahramonahmedov67@gmail.com

KEY ASPECTS OF IMPROVING PROFESSIONAL EDUCATION IN THE TRAINING OF SOCIAL WORKERS

ABSTRACT

This article analyzes the formation process and developmental stages of social work in Uzbekistan. It highlights the key aspects of improving social work education at the professional level, the significance of historical experience, and the importance of international practice. The article discusses the early stages of social work, reforms in the social protection system during the post-independence period, as well as the introduction of social work programs in higher education institutions. It also examines the development of curricula in cooperation with international organizations, the training of qualified specialists, and the retraining of existing personnel. In conclusion, the paper substantiates that enhancing the quality of professional education in the training of social workers is a crucial factor in strengthening the social protection system and effectively meeting the social needs of the population in Uzbekistan.

Keywords: Social work, social worker, professional education, improvement of education, historical stages, Uzbekistan, social protection system, training of specialists, international cooperation, higher education.

KIRISH

Ijtimoiy xodimlar uchun kadrlar tayyorlashda professional ta'limni takomillashtirishning asosiy jihatlari ushbu kadrlarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda muhim jihatlari e'tiborga olinishi lozim. Ushbu muhim jihatlari nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishni, innovatsion metodlarni joriy etishni, ularni xalqaro standartlarga moslashtirishni, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishni, fanlararo yondashuvni takomillashtirishni va amaliy stajirovka dasturlarini kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, amaliy sotsiologiyani eng asosiy funksiyasi – bu jamoatchilik fikrini aniqlash va monitoring qilishdir. Jamoatchilik fikrining ustuvor jihati shundaki, u davlat va jamiyatdagi har qanday masala yuzasidan xolisona va shaffof munosabatni shakllantiradi. Bunday yondashuv demokratik tamoyillarni real hayotga tatbiq etishga turtki bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilish – aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi" [1]. Bu – masalani birinchi tomoni. Masalani ikkinchi tomoni, bizning fikrimizcha, jamoatchilik psixologiyasi bilan bog'liq. Psixologik nuqtayi nazarga ko'ra, jamoatchilik fikri bu aniq shaxs yoki guruh fikri emas. Shaxs va guruh fikrining egasi ma'lum bo'ladi, ya'ni aniq subyektga tegishli bo'ladi. Jamoatchilik fikri esa jamiyatda shakllansa-da, biroq u aniq strukturaga ega bo'lmaydi.

METODOLOGIYA

XX asrda ijtimoiy ta'minotning metodi, ularga muvofiq tahlili va yo'llari ta'rifiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ular yordamida xayriya va jamoat tashkilotlari o'z maqsadlarini jamiyatning pragmatik maqsadlariga muvofiqlashtirishi mumkin bo'gan. AQShda Meri Richmond birinchi bo'lib buni amalga oshirdi. U e'tiborni individga va uning oilasiga qaratib, xayriya metod bilan bog'ladi. 1915-yilda chop etilgan "Ilmiy ijtimoiy ish" asarida M.Richmond ijtimoiy xodimlar hal qilishiga to'g'ri kelgan ijtimoiy ish sifati baholari sxemasi to'plamini, ijtimoiy muammolar tashxisini taklif etdi. Bu muhtojlarga yordam ko'rsatishning turli shakllarini anglashga tayangan axloqiy-terapevtik ijtimoiy ish yaratilishiga olib keldi.

"Yangi metod sifatida 1917-yilda "Ijtimoiy tashxis" kitobida olim tomonidan batafsil ta'riflab berilgan va ijtimoiy ta'minot dasturlari samaradorligining oshishiga ko'maklashgan. M.Richmond ham mijozning shaxsi, ham uning ijtimoiy holati sifatida baholashni nazarda tutuvchi o'zining ijtimoiy tashxis metodini batafsil ta'riflab berdi. M.Richmond keyinchalik terapevtik nomini olgan ijtimoiy ish modeli asoschisi hisoblanadi. Ushbu modelga muvofiq xar bir alohida holatda baholash, ijtimoiy tashxis qo'yish va uning asosida davolash metodini tanlash qobiliyati ijtimoiy xodim faoliyatida eng muhim hisoblanadi. Nochorlikni kasallik deb hisoblagan Richmond vrach va ijtimoiy xodim faoliyati o'rtasida o'xshashlikni keltirdi" [2].

"U ijtimoiy yordamni chora-tadbirlar kombinatsiyasi deb qaraydi, xam mijozning, xam uning ijtimoiy muhitining o'zgarishi ularning natijasi hisoblanadi. M.Richmond ijtimoiy tadbirlarni ikkita bir-birini to'ldirib boradigan metodga ajratdi: davolashning bilvosita metodi va davolashning bevosita metodi. Bilvosita metod insonning tashqi muhitiga ta'sir qilishdan, yechimlar ishlab chiqish uchun uni faol sa'y-harakatlarga undash maqsadida mijozning o'ziga ta'sir qilishdan iborat edi. Ushbu mumtoz asarda quyidagilar qayd etilgan: "Yaxshi ijtimoiy xodim kishilarni qashshoqlikdan qutqarish bilan shug'ullanmay, balki umuman qashshoqlikka barham berish haqida o'ylaydi. M.Richmondan keyin "o'rganish, tashxis, davolash" paradigmasi ijtimoiy ishda asosiy paradigмага aylandi" [3].

ASOSIY QISM

O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasini shakllanishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va islohotlar tahlil qilinib, unda O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasining vujudga kelishi va rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib tahlil qilish mumkin:

Birinchi bosqich Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini shakllanishi 1991-2004-yillardagi davrga qarab tahlil qilish orqali ushbu sohada aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish mexanizmlarining shakllanishi va ijtimoiy ishning huquqiy asoslari sifatida 1991-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonuni[4], 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [5] ni qabul qilinishi bilan ijtimoiy ishning dastlabki huquqiy asoslari yaratilgan.

Bundan tashqari, Taraqqiyotning "O'zbek modeli" – bu mustaqillikka erishgandan keyin, 1991-yildan boshlab, O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini tavsiflaydigan konsepsiyadir [6].

Ijtimoiy ishning birinchi bosqichi, odatda, fundamental islohotlar va tizimli o'zgarishlar davri sifatida qabul qilinadi, bu esa keyingi bosqichlarga zamin yaratdi. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillarini ijtimoiy ish sohasida alohida bosqich sifatida ajratib ko'rsatish to'g'ri bo'ladi.

Ikkinchi bosqich 2004-2017-yillar Ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy xodimlarni tayyorlanishi va qonunchilik takomillashuvini o'z ichiga olib, 2007-yil 23-yanvardagi "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi to'g'risidagi PQ-573-son qarori [7], 2008-yil 07-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-son qonuni [8], 2008-yil 11-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-162-son qonuni [9], 2014-yil 25-sentyabrdagi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-376-son qonuni [10], 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son qonuni [11] va bundan tashqari bir qator normativ huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin. Yuqorida keltirilgan qonunchilik O'zbekiston ijtimoiy sohasi va ijtimoiy xizmatlar takomillashuviga xizmat qilgan. 2004-yilda Toshkent davlat Madaniyat institutida bilan "Ijtimoiy ish" ta'lim yo'nalishi ochildi va shu yili bakalavr darajasida


yuqori malakali ijtimoiy ishchilarni tayyorlash uchun maxsus kafedra tashkil etildi. Bu kafedra ijtimoiy ish sohasida mutaxassislarni tayyorlashda birinchi qadam bo'lgan.

2005-yil sentyabrda O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand Davlat Universiteti va Farg'ona Davlat Universitetida ijtimoiy ish o'quv yo'nalishlari ochildi. Shu bilan birga ushbu sohada bakalavriat va magistratura darajasida ijtimoiy ish mutaxassislarni tayyorlashda, maxsus fanlar sikli va ilmiy tadqiqot metodlari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish bo'yicha Milliy jamoa a'zolari tomonidan ijtimoiy ish xodimining professogrammasi ishlab chiqildi [12]. Uning asosiy vazifasi, ish subyektiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, professional muhim sifatlarni amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy ish xodimining professogrammasi mutaxassislarni, ijtimoiy ish va ularning faoliyati standartlari bo'yicha yaratishda qo'yilgan birinchi qadamdir va bu ularning ta'lim tizimi va professional o'quv jarayonini mukammallashtirishda muhim hisoblanadi.

Uchinchi bosqich 2017-2021-yillar Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi bilan asoslanadi. 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni [13], 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son qonuni [14], 2019-yil 11-fevraldagi bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4185-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi. Sog'liqni saqlash vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi qaror qilingan: Ijtimoiy xodimlarning maqomi, vazifalari, funksiyalari va malakaviy talablari to'g'risidagi yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlangan. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi zarur kasbiy malakaga ega bo'lgan shaxs ijtimoiy xodim hisoblanadi. Ijtimoiy xodimlar davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam jarayonini boshqarishi, turmush sharoitini majmuaviy baholashi, ko'rsatiladigan xizmatlar monitoringini amalga oshirishi belgilangan. Ushbu hujjat bilan uch turdagi lavozimdagi ijtimoiy xodimlarning maqomi, vazifalari, funksiyalari va malakaviy talablari belgilangan.

2019-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 252-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [15] (1-rasm).




1-rasm. Aholini ijtimoiy himoyalash xizmatlarini taqdim etish bo'yicha institutsional tuzilma

To'rtinchi bosqich 2021-yildan to bugunga kunga qadar Yangi O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasini Ijtimoiy davlat tamoyillari asosida rivojlanishi bilan izohlanadi. Bu borada 2021-yil 08-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5140-son qarori, 2021-yil 23-avgustdagi "Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5227-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2023-yil 1-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-82-sonli "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi [16], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy ishsohasini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Yangi tahriri qabul qilinganligi muhim bosqich ahamiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 1-moddasida qayd etilishcha "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir".

Ijtimoiy ish mutaxassislari tayyorlanayotgan OTlarda ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis nazariy bilim olib va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy ish sohasida tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-pedagogik, mustaqil ta'lim hamda amaliyot o'tash ishlari yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda esa mamlakatimizda 12 ta OTlarida ijtimoiy ish bo'yicha 2100 dan ortiq kadrlar tayyorlanmoqda (2-rasm).



2-rasm. 2023-2024 o'quv yilida OTMda tahsil olayotgan talabalar ulushi

O'quv jarayonida alohida e'tibor ijtimoiy ishning bo'lajak mutaxassisliklarini amaliy tayyorgarligiga qaratiladi. Birinchi kursdan boshlab talaba tanishtiruv, o'quv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o'tashi shart hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-sentyabr 518-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufida ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti va ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari belgilangan [17]. Institut va Markazning maqsadi: Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tahlillar olib borish va tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Malaka oshirish markazi esa vazirlik va idoralarning xodimlari hamda oilaviy bolalar uylarini tashkil etish uchun tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarini tashkil etadi. 2024-yil 31-may holatiga ko'ra ushbu markazlar tuzilmasida 4708 nafar ijtimoiy xodim faoliyat ko'rsatmoqda. (1-jadval)

1-jadval.

Tuman (shahar)lardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar [18]

№	Hududlar	Ijtimoiy xizmatlarni tashkillashtirish bo'yicha mutaxassis (operator)	Mahallada kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	34	255
2.	Andijon viloyati	32	392
3.	Buxoro viloyati	26	310

4.	Jizzax viloyati	26	196
5.	Qashqadaryo viloyati	32	462
6.	Navoiy viloyati	22	163
7.	Namangan viloyati	28	366
8.	Samarqand viloyati	32	484
9.	Surxondaryo viloyati	30	373
10.	Sirdaryo viloyati	22	130
11.	Toshkent viloyati	44	426
12.	Farg'ona viloyati	38	507
13.	Xorazm viloyati	26	264
14.	Toshkent shahar	24	380
	Жами:	416	4708

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash davomiyligi bir yildan besh yilgacha o'zgarib turadi. Bolonya jarayoni 1999-yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, YEHEA (European Higher Education Area) tashkil etilgan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini yagona modelga keltirishni ko'zda tutgan.

"3+2 modeli" Bolonya jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tan olingan. "3+2 modeli" Yevropa oliy ta'limidagi standart ta'lim tuzilishi bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 3-yillik bakalavriat – birinchi daraja; 2-yillik magistratura – ikkinchi daraja. Bu tuzilma Bolonya jarayonining asosiy talablaridan biri bo'lib, uning maqsadi Yevropa mamlakatlarida oliy ta'lim tizimini muvofiqlashtirish, uni shunga mos xalqaro miqyosda tan olinishiga yo'l ochish va mobillikni osonlashtirishdan iborat. Eng keng tarqalgan modellardan biri Amerikaning "4+2 modeli". Ushbu modelga ko'ra, talabalar universitetda to'rt yil o'qib, ijtimoiy ish bo'yicha bakalavr darajasini oladilar. Shundan so'ng, magistraturada ikki yillik o'qish orqali ijtimoiy ish sohasidagi biror-bir ixtisoslik bo'yicha mutaxassislashishlari mumkin. Ushbu modelda bakalavriat darajasida talabalar ijtimoiy ishning umumiy asoslari, nazariyalari va amaliyotlari bo'yicha bilim olishadi. Magistratura darajasida esa ular muayyan sohada, masalan, oilaviy ijtimoiy ish, bolalar bilan ishlash, sog'liqni saqlash ijtimoiy ishi va boshqalarda chuqurroq ixtisoslashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu model yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy ishchilarning malakasini yanada oshiradi.

Biroq, barcha maktablar o'quv amaliyotini yuqori darajada tashkil eta olmaydi. Masalan, K.Kandelning ta'kidlashicha, ba'zi mamlakatlarda dala (o'quv) amaliyoti talabalarning ijtimoiy agentlik qanday ishlashini kuzatishdan boshqa narsa emas [19].

AQSHda nazariy va amaliyot birligi: Talabalar nazariy ta'lim olgandan so'ng, dala amaliyoti orqali o'z bilimlarini real ish sharoitlarida qo'llaydilar.

Amaliyot soatlari: bakalavr darajasida 400-600 soat, magistr darajasida esa kamida 900 soat amaliyot o'tash talab etiladi.

Amaliyot joylari: kasalxonalar, maktablar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy xizmat markazlari va boshqa shu kabi bir qator tashkilotlar hisoblanadi.

Jamiyatda ijtimoiy tenglik, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy davlat modeli rivojlanmoqda. Ushbu modelning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Masofaviy va dual ta'lim shakllari rivojlangan davlatlarda jumladan AQSH, Germaniya va Kanadada ijtimoiy ish sohasida yuqori samara bermoqda. Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda mentorlik faoliyati orqali inklyuziv kasbiy kompetensiyalar rivojiga xizmat qilishi mumkin.


Jamiyatda ijtimoiy tenglik, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy davlat modeli rivojlanmoqda. Ushbu modelning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Masofaviy va dual ta'lim shakllari rivojlangan davlatlarda jumladan AQSH, Germaniya va Kanadada ijtimoiy ish sohasida yuqori samara bermoqda. Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda mentorlik faoliyati orqali inklyuziv kasbiy kompetensiyalar rivojiga xizmat qilishi mumkin.

Mentorlik amaliyot davomida talabalar tajribali ijtimoiy ishchilar (mentorlar) tomonidan nazorat qilinadi va yo‘naltiriladi.

Ayrim mamlakatlarda esa eng yaxshi holatda, ushbu amaliyotdan talabalar ma‘lum bir muassasada ijtimoiy ishning mohiyati to‘g‘risida umumiy tushunchaga ega bo‘ladilar, ammo amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lmaydilar” degan ta‘rifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirgi kunda ham talabalar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olmaslik holatlari kuzatilmoqda. Yana shuni aytishimiz mumkinki talabalar amaliyot o‘tayotgan bir qator tashkilotlar maqsadi talabalarni amaliy ko‘nikmalari emas balki o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda talabalardan foydalanishi achinarli ahvoldir.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar, xususan, YUNISEF va BMT kabi xalqaro tashkilotlarning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bu tashkilotlar mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va ijtimoiy ish tamoyillarini amalga oshirishni o‘zlarining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilagan. BMT tizimi aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilashga qaratilgan choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, “BMT hujjatlarida ijtimoiy ish sohasini rivojlantirishning ustuvorligi ta‘kidlangan bo‘lib, unga ko‘ra BMT agentliklari takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini joriy qilish va ijtimoiy ishchilarni tayyorlash uchun institutsional salohiyatni oshirish orqali ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy ishning me‘yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishga yordam berishadi” [20].

2017-yilda O‘zbekistonda ijtimoiy ishni yanada rivojlantirish uchun Konsepsiya ishlab chiqildi va YUNICEF hamda O‘zbekiston Milliy universiteti o‘rtasida “O‘zbekistonda ijtimoiy ish ta‘limi va amaliyotini yanada rivojlantirish” nomli qo‘shma uzoq muddatli loyiha amalga oshirila boshlandi. Ushbu loyiha quyidagi maqsadlarga qaratilgan (3-rasm).




3-rasm. O‘zbekistonda ijtimoiy ish ta‘limi va amaliyotini yanada rivojlantirish maqsadlari

Bu tashabbuslar O‘zbekistonda ijtimoiy ish ta‘limi va amaliyotini yanada rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz: Birinchidan, aholining zaif toifalarini, oilalar va bolalarni himoya qilish sohasida “ijtimoiy ish” kasbining barqarorligini ta‘minlash. Ijtimoiy ishning ushbu sohalarda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan barqarorlikni yaratish; ikkinchidan, “Ijtimoiy ish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash; uchinchidan, ta‘lim dasturlarini va malaka oshirish kurslarini rivojlantirish orqali ijtimoiy ish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash; to‘rtinchidan, ijtimoiy xodimlar tayyorlaydigan xorijiy universitetlar bilan aloqani yanada kuchaytirish; beshinchidan, xalqaro tajribani o‘rganish va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro reytingda e‘tirof etilgan nufuzli xorijiy universitetlar bilan aloqalarni mustahkamlash; oltinchidan, bolalarni himoya qilish tizimi amaliyotchilarini bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish asoslarini o‘rgatish uchun qisqa muddatli kurslar dasturini ishlab chiqish. Bu vazifalar ijtimoiy ish sohasida malakali xodimlar tayyorlash va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy ish sohasida tahsil olayotgan talabalar fikrini o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda professional ta'limni takomillashtirishning asosiy jihatlari" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotda jami 600 nafar respondent qatnashdi. Unda O'zbekiston Milliy universiteti, Namangan davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Guliston davlat universiteti talabalari ishtirok etdilar.


Soha bo'yicha ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilarni muloqot ko'nikmalari va madaniyatini qanday baholaysiz savoli bo'ldi. Ishtirokchilarning javobi quyidagicha bo'ldi: Ular yuksak muloqot madaniyatiga ega shaxslar sanaladi-38%, Ayrim holatlarda ularni ba'zilarida muloqot ko'nikmalari yetishmaydi-34%, Ularda umuman hech qanday malaka ko'nikmalari va madaniyati yo'q-14%, Ular bilan muloqot faqat dars jarayonida bo'ladi, shundan kelib chiqib ularni baholashga qiynalaman-14%. Respondentlarimizning bergan natijalaridan ko'rishimiz mumkin eng yuqori natija 38% ni eng quyi natija esa 14% ni tashkil etgan (4-rasm).



4-rasm. Ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilarni muloqot ko'nikmalari va madaniyatini baholash

Demak, OTTlar ijtimoiy ish sohasida dars berayotgan professor o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalari va madaniyatini bunday baholanishi professor-o'qituvchilar ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga doir ko'nikmalari o'rta darajada ekanligidan darak beradi. Ekspertlarni fikrlariga ham e'tibor qaradigan bo'lsak ular bergan javoblarda ham 49% ni tashkil qilib, talabalar murojaatiga alohida vaqt yetishmasligini bildirib yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaganliklarini kuzatishimiz mumkin.

"Malaka amaliyot o'tash jarayonidan qay darajada ko'nglingiz to'ladi?" berilgan savolga, respondentlar quyidagicha javob berishdi: yuqori variantini tanlaganlar 25% ni tashkil etadi, afsuski bu natijalar kishini xursand qilmaydi. O'rta darajada variantini tanlaganlar 40% ni tashkil etdi, past darajani tanlaganlar esa 100% dan 12% ni tashkil etganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Qolgan 10% ishtirokchi ko'nglim to'lmaydi deb 12% qismi esa ushbu savolga javob berishga qiynalishini aytganligini ko'rishimiz mumkin. Afsuski ushbu savolni javobining natijalarini ijobiy deb ayta olmaymiz (5-rasm).




5-rasm. Malaka amaliyotini o'tash jarayonidan qay darajada ko'ngil to'lishi

Demak, sotsiologik tadqiqotlar jarayonida respondentlarning o'qish davrida o'quv rejada belgilangan malaka amaliyotini o'tash jarayonidan unchalik ko'ngillari to'lmashliklarini bildirib

o'tishdi. Bu borada ekspertlarimiz bergan xulosalarga to'xtaladigan bo'lsak 47% ya'ni ba'zi bir tashkilot vakillari malaka amaliyotiga haq to'lanmasligi va ortiqcha mas'uliyat ekanidan norozi kayfiyatda ekanini bildirib o'tganlar. OTTdan qatnashgan ekspertlarimiz esa amaliyot jarayoni oldingi davrdan ancha yaxshilashgani va 1-kursda o'quv amaliyoti olib tashlangani, 2-kursda esa amaliyot soatlari juda qisqa ekanligi, buning natijasida talaba yoshlar mustaqil hayotga qadam qo'yganda nazariyani amaliyotga bog'lashda turli muammolarga uchrashlar kuzatilayotganligini bildirganlar.

Respondentlarni jins kesimi bo'yicha ham taqsimlab oldik, ushbu tadqiqotimizda 43% erkaklar hamda 57% ayollar ishtirok etdi.

Tadqiqotda O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti va Guliston davlat universiteti talabalaridan iborat 600 nafar respondent ishtirok etdilar (6-rasm).




6-rasm. Respondentlarning OTTlari bo'yicha taqsimoti

Shundan 1-kurs talabalaridan 17% (102 nafar), 2-kurs talabalaridan 20% (120 nafar), 3-kurs talabalaridan 21% (126 nafar), 3-kurs talabalaridan 17% qismi (102 nafar) va 4-kurs talabalaridan 12% esa (72 nafar). Shuningdek, 1-2-kurs magistratura mutaxassisligi magistrantlaridan 13% (78 nafar) respondentlar ishtirok etdilar. Respondentlarni tanlab olish bir bosqichli amalga oshirilib, talabalar sonidan kelib chiqib maqsadli metod orqali tanlab olingan (7-rasm).

7-rasm. Respondentlarning kurslari bo'yicha taqsimoti

Tadqiqotimiz juda qiziqarli va samarali yakunlandi, tadqiqot davomida o'zimizni qiziqtirgan barcha savollarga javob topdik. Respondentlar bilan qizg'in suhbat va muzokaralarni olib bordik. Ular bilan fikr almashdik. Tadqiqotimiz o'zimiz kutganimizdanda qiziqarli va oson kechdi.

XULOSA



Olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

Birinchiidan, respondentlar bergan javoblari tahlil qilishimiz natijasida, bugungi kunda, Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufiga kiruvchi OTTlarda Ijtimoiy ish bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonlari o'rganildi. O'rganishlar natijasida talabalarga ta'lim berayotgan professor o'qituvchilar ularni bilim salohiyati, muomala-madaniyati va dars mashg'ulotlarini sifati ayrim

professor o'qituvchilarda kamchiliklar borligi aniqlandi. Ushbu professor o'qituvchilar ko'proq o'z ustilarida ishlasalar bu kabi muammolar bartaraf bo'lishi haqida fikrlar olingan.

Ikkinchidan, o'tkazilgan tadqiqot davomida respondentlarning aksariyati malakaviy amaliyot jarayonidan unchalik ko'ngli to'lasligini va amaliyotni ko'proq xalqaro darajadagi tashkilotlarda o'tash istaklarini bildirganlar.

Uchinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ijtimoiy ish sohasida tahsil olayotgan talabalarning e'tiborini tortayotgan muammolardan migrantlar va xotin qizlar, ularning ijtimoiy vaziyati ekanligi ma'lum bo'ldi.

To'rtinchidan, olib borilgan tadqiqotlarda respondentlarning fikri tahlil qilinishi natijasida, sohaga doir lotin tilidagi adabiyotlar yetishmasligi, professor o'qituvchilarni adabiyotlar yozish uchun bo'sh vaqtini bo'lasligi va soha bo'yicha talabalar adabiyotlarni ko'proq rus va ingliz tilida internet orqali elektron adabiyotlardan foydalanishlarini bildirganlar.

Beshinchidan, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning ko'plab qismi ijtimoiy ish sohasi haqida keng jamoatchilik xabardorligi borligi haqida ma'lumot berib o'tganlar. Mazkur muammolarni hal etilishi tizimli islohotlarni olib borilishini taqazo etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent:O'zbekiston, 2017. – B.466.
2. Richmond, M. E. Social diagnosis // New York: Russell Sage Foundation, 1917, - P.511.
3. Цит. по ст. Социальная работа как профессия // Социологические исследования. 1993. № 3. – С.91
4. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi 422-XII-son qonuni.
5. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги 464-И-сонли «Таълим тўғрисида» ги Қонуни ва 463-И-сонли «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». УРЛ:<https://lex.uz/docs/16188>
6. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 23 январдаги ПҚ-573 – сон "Ижтимоий ҳимоя йили" давлат дастури тўғрисидаги Қарори URL:<https://lex.uz/docs/1112866>
8. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 07-январдаги ЎРҚ-139-сон Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни URL: <https://lex.uz/docs/1297315>
9. Ўзбекистон Республикасининг 2008-йил 11-июлдаги ЎРҚ-162-сон "Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида"ги Қонуни URL: <https://lex.uz/docs/1372495>
10. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 25-сентябрдаги ЎРҚ-376-сон "Ижтимоий шериклик тўғрисида"ги Қонуни URL: <https://lex.uz/docs/2468214>
11. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14-сентябрдаги ЎРҚ-406-сон "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни URL: <https://lex.uz/docs/3026246>
12. Ганиева М.Х., Карамян М.Х., Ким Л.Э. Профессиограмма социального работника. – Ташкент: РЦСАД, ЮНИСЕФ, 2009. – С.12.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги фармони.
14. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12-апрельдаги ЎРҚ-474-сон "Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги Қонуни URL: <https://lex.uz/uz/docs/3679092>
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 26 мартдаги 252-сон "Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги Тиббий-ижтимоий хизматлар агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 июндаги ПФ-82-сон “Аҳолига сифатли ижтимоий хизмат ва ёрдам кўрсатиш ҳамда унинг самарали назорат тизимини йўлга қўйиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони URL:<https://lex.uz/docs/6480342>

17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti va Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2023 йил 30 сентябрдаги 518-сон қарори УРЛ:<https://lex.uz/ru/досс/6623345>.

18. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги директоринг 2024-йил 31-майдаги 138-сон буйруғига 4-ИЛОВА

19. Kendall, Katherine A. Reflections on social work education, 1950–1978. New York: International Association of Schools of Social Work, 1978 – P.201.

20. БМТнинг 2016-2020 йилларга мўлжалланган ривожланиш мақсадларида Ўзбекистон Республикасига кўмаклашиш бўйича асосий дастури. (2.3.4-банд). – Тошкент: Бастриа пресс, 2015 йил. – 88 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000